

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

## PARLAMENT NAZORATI SHAKLLARINING HUQUQIY TASNIFI VA ULARNING AHAMIYATI

**Sultanova Niyozjon**

*Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi parlament nazorati, parlament nazorati shakllarining huquqiy tasnifi va ularning bugungi kundagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** parlament nazorati, ijtimoiy nazorat, huquqiy, moliyaviy nazorat, siyosiy nazorat, parlament so'rovi, parlament nazorati shakllari, parlament nazorati natijalari.

O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati davlat organlarining faoliyatini baholash va nazorat qilish, shu bilan birga, fuqaro huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim institut hisoblanadi. Bu institut, davlatning samarali boshqarilishini ta'minlashda, korrupsiyaning oldini olishda va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda alohida ahmiyatga ega. O'zbekistonning parlament nazorati shakllarini va ularning huquqiy tasnifini o'rganish, mamlakatda demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu paragrafda O'zbekiston parlament nazoratining huquqiy asoslari, shakllari, xalqaro tajribalar va ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

Parlament nazorati – bu parlamentning davlat hokimiyati va boshqa davlat organlari faoliyatini nazorat qilish, hukumatning qarorlari va amaliyotlarini tahlil qilish hamda davlat byudjeti va boshqa resurslar sarfini nazorat qilish jarayonidir. Parlament nazorati mamlakatda ochiqlikni, hisobdorlikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Parlament nazorati shuningdek, davlat organlari faoliyatining qonuniyligini va samaradorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, siyosiy tazyiqlarni oldini olish va davlatni xalq oldida hisobdor qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, parlament nazorati davlatning yuksalishi uchun zarur bo'lgan prinsiplarni, ya'ni demokratiya, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati turli shakllarda amalga oshiriladi. Ushbu shakllarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

Ijtimoiy nazorat – Parlament deputatlari, jamoatchilik vakillari va nodavlat tashkilotlari davlat organlarining faoliyatini tahlil qiladi va ijtimoiy muammolarni ko'taradi. Bu nazorat shakli ko'proq xalqning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Huquqiy nazorat – Parlament deputatlari va qonun chiqaruvchi organlar, davlat organlarining huquqiy faoliyatini tahlil qilish va qonunchilikning to'g'ri bajarilishini ta'minlashga qaratilgan. Bu shakl davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarini tekshirishni o'z ichiga oladi.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*VIII son, Iyul*

Moliyaviy nazorat – Parlament moliyaviy va byudjet jarayonlarini nazorat qiladi. Bu nazorat shakli, hukumatning davlat byudjetini qanday sarflayotgani, mablag‘larning to‘g‘ri va samarali taqsimlanishini tekshirishga asoslanadi.

Siyosiy nazorat – Parlament nazorati faoliyatining eng muhim shakli bo‘lib, u hukumat va boshqa davlat organlarining siyosiy faoliyatini baholaydi. Siyosiy nazorat, parlamentning hukumatga munosabatini, hukumatning siyosiy rejasini va dasturlarini tahlil qiladi.

Oliy Majlis palatalari nazorat faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilish O‘zbekiston Respublikasida parlament nazoratining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat degan xulosaga olib keladi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning palatalari qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo‘mitalarining qarorlari ijrosi ustidan parlament nazorati;
- 2) moliyaviy parlament nazorati;
- 3) inson huquqlariga rioxaligi etilishi sohasida parlament nazorati;
- 4) davlat organlarining shakllantirilishi va mansabdar shaxslarning tayinlanishi ustidan parlament nazorati;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan muhim siyosiy qarorlar qabul qilinishida parlament nazorati.

Parlament nazoratining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlari quyidagi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi: parlament palatalari, ularning qo‘mitalari va komissiyalari, Qonunchilik palatasining fraksiyalari va deputatlar guruhlari, Qonunchilik palatasi deputatlari va senatorlari, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili.

Parlament nazorati parlament nazorati bosqichining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta vazifasi bajarilganda amalga oshiriladi:

- 1) mas’uliyatli qarorlar qabul qilish va pozitsiyalarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan axborotni, shuningdek ma’lumotlarni olish, to‘plash va qayta ishlash;
- 2) olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash;
- 3) olingan axborot asosida Oliy Majlis tomonidan parlament nazorati natijalari bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinishi.

Qonun hujjatlariga muvofiq Oliy Majlis palatalari axborotni olish va unga ishlov berish uchun:

- parlament so‘rovlari, vazirlar va boshqa mansabdar shaxslar bilan uchrashuvlar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini o‘rganish bo‘yicha muvaqqat komissiyalarni ta’sis etish; - qo‘mitalar va komissiyalarning ochiq va yopiq majlislari;
- Qonunchilik palatasining deputatlar birlashmalari (fraksiyalari va guruhlari) majlislari; O‘zbekiston Respublikasida parlament nazorati va uni takomillashtirish masalalari;
- ayrim fuqarolar, muayyan manfaatlar bo‘yicha guruhlar, jamoat tashkilotlari va ularning vakillaridan murojaatlar va boshqa axborotlar olish;

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili tomonidan taqdim etiladigan axborot va hisobot;
- amaldagi qonun hujjatlari monitoringi subyektlaridan axborot olish;
- deputatlar va senatorlarning saylovchilar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari bilan uchrashuvlari;
- OAV materiallarini tahlil qilish;
- ma'lumotlar banklariga kirish.

Parlament nazorati shakllari quyidagilardan iborat:

Davlat budjeti ijrosining borishini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzasini ko'rib chiqish;

Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan, tegishli yilga mo'ljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzasini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini eshitish;

Qonunchilik palatasi, Senat majlislarida hukumat a'zolarining, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi de putatlari savollariga javoblarini eshitish;

Senat majlislarida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish;

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyati masalalariga doir hisobotlarini eshitish;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini eshitish;

Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobotini eshitish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotini eshitish;

Parlament so'rovi;

Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining so'rovi;

Qonunchilik palatasi, Senat qo'mitalari tomonidan davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

Qonun hujjatlarining ijrosi holatini, huquqni qo'llash amaliyotini Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari tomonidan o'rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan ular tomonidan monitoringni amalga oshirish;

Parlament tekshiruvi.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

Jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlariga daxl qiluvchi, mamlakat xavfsizligi asoslariga, uning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muayyan faktlarni yoki voqealarni o'rganish maqsadida Qonunchilik palatasining, Senatning qarori bilan parlament tekshiruvi o'tkazilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi, Senat parlament tekshiruvini o'tkazish uchun tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari orasidan komissiya tuzadi.

Komissiya parlament tekshiruvini o'tkazishda quyidagilarga haqli:

Davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining vakillarini, mutaxassislarni, ekspertlarni va olimlarni komissiya ishiga jalb etishga;

Davlat organlaridan, xo'jalik boshqaruvi organlaridan, boshqa tashkilotlardan, shuningdek fuqarolardan zarur ma'lumotlarni so'rab olishga;

Davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini, shuningdek fuqarolarni tushuntirishlar berish uchun taklif qilishga haqli.

Komissiya Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Komissiya tegishincha Qonunchilik palatasini yoki Senatni bajarilgan ishlar to'g'risida Qonunchilik palatasi, Senat tomonidan belgilangan muddatda xabardor qiladi.

Parlament tekshiruvi Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan ham o'tkazilishi mumkin.

Parlament nazorati qonunga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.<sup>57</sup>

Parlament nazorati natijalari.

Parlament nazorati subyektlari o'z vakolatlari doirasida parlament nazorati natijalari bo'yicha:

Hukumat a'zosini iste'foga chiqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taklif kiritishi;

Tegishli davlat organlariga, xo'jalik boshqaruvi organlariga qonun hujjatlarining, davlat dasturlarining ijrosi, o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarning amalga oshirilishi samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan takliflar va tavsiyalar kiritishi;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan ma'ruzalarni, hisobotlarni, axborotni hamda boshqa materiallarni ular yuzasidan mulohazalar va takliflarni ko'rsatgan holda ushbu organlarga maromiga yetkazish uchun belgilangan tartibda qaytarib yuborishi;

Parlament nazorati materiallarini vakolatli davlat organlariga o'z vakolatlariga muvofiq ko'rib chiqish uchun yuborishi;

<sup>57</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2014.й. - № 9-10. - 136-модда.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*VIII son, Iyul*

Fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonunchilikni buzishning boshqa hollari ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo‘yish choralarini ko‘rish talabi bilan tegishli davlat organlariga, xo‘jalik boshqaruvi organlariga hamda mansabdor shaxslarga murojaat qilishi;

Mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga, xo‘jalik boshqaruvi organlariga takliflar va tavsiyalar kiritishi;

Yangi qonunchilik hujjati loyihasini ishlab chiqish yoki amaldagi qonunchilik hujjatla rini qayta ko‘rib chiqish tashabbusi bilan chiqishi;

Parlament nazorati natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni ko‘rib chiqish va ijro etish.

Davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

Parlament nazorati subyektlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning ko‘rib chiqilishi va ijro etilishini ta’minlaydi;

Parlament nazorati natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan zarur tadbirlarni ishlab chiqadi va (yoki) qarorlar qabul qiladi;

Takliflar va tavsiyalarni ko‘rib chiqish natijalari hamda ular bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida parlament nazorati subyektlariga xabar qiladi;

Qonunchilikning buzilishiga yo‘l qo‘ygan davlat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlik choralarini ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasida parlament nazorati mamlakatning huquqiy tizimi, siyosiy barqarorligi va davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, parlament nazoratining samaradorligini oshirish uchun bir qator takliflar va tavsiyalar mavjud. Xalqaro tajriba va ilmiy qarashlar, O‘zbekiston parlamentining nazorat mexanizmlarini yanada mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini rivojlantirishda yordam berishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.:“Ўзбекистон”, 2023 й.
2. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон хуқуqlари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонунига шарҳлар. // Маъсул муҳаррир Рашидова. С.Ш. – Т.: Адолат, 1998.
3. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002.– 12-сон. 215-модда.
4. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида”ги Конституциявий қонун // Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002.– 12-сон. 213-модда.

## **TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR**

*VIII son, Iyul*

5. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида”ги қонун // Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2003.– 9-10-сон. 136-модда.
6. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Регламенти тўғрисида”ги қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – 2005.–5-сон. 161-модда.
7. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг мақоми тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи. 2005 йил 27 январь.
8. “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи. 2019 йил.